



Surayyo Otakuziyeva,

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
huzuridagi O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari ilmiy-tadqiqot
markazi demografiya va mehnat bozori
sektori kichik ilmiy xodimi*

O'ZBEKISTONDA ELEKTRON HUKUMATN SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Hayotimizning har bir jabhasida asrimizning axborot asri deb bejis atalmaganligini his etib turibmiz. Jamiyatning turli sohalari rivojida axborotning muhim o'rin tutishining guvohi bo'lmoqdamiz. Axborot jamiyatni taraqqiyot tomon undaydi. Hozirgi davrda mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy mazmun-mohiyati jamiyatni modernizatsiya qilish va uzoq muddatga mo'ljallab qabul qilingan rivojlanish dasturlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bilan ifodalanadi.

Shunday ekan, asosiy maqsad mamlakat aholisining zamon talabiga mos savodxonligini oshirish, ularning axborot texnologiyalari bilan ta'minlanganligi va xalqimiz turmush jarayonida hamda ishlab chiqarishda oqilonqa foydalanishiga erishilishiga yordam berishdan iborat. Iqtisodiyot, ishlab chiqarish, aloqa, ilmiytadqiqot, ta'lif, tibbiyot va biznes sohalaridagi mehnat sifati, mehnat unumдорлиги va samaradorlik darajasini yuksaltirish tatlbiq etilayotgan eng zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan bog'liq. Hozirgi davrda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini jahon miyosida hayotga keng tatbiq etilishi industrial jamiyatdan axborotlashgan jamiyatga, axborotlashgan iqtisodiyotga o'tilishi bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat sektoriga elektron texnologiyalarning qo'llanilishi va rivojlanishining asosiy yo'naliishi bo'lib, huquqiy-me'yoriy asosni takomillashtirish bo'lib hisoblanadi.

Shu yo'naliishdagi asosiy masalalardan biri — bu elektron hujjatlarni yaratish va qo'llash borasida qonunchilik asosini shunday yaratish lozimki, u umumiyl axborot resurslar va tizimlardan foydalanish imkoniyatini, axborotning konfidentsionalligini, shuningdek, oddiy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini saqlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Hozigi kunga kelib, axborot resurslarini yig'ish, qayta ishslash, uzatish va iste'molchilarining shaxsiy talablaridan kelib chiqqan holda, ushbu resurslarni tayyorlash bilan shug'ullanadigan turli xil axborot kommunikatsiyalar biznesi vujudga kelgan bo'lib, ular ushbu bozor negizidir. Bugungi kunda, «Elektron hukumat»ning samaralilari sifatida, 20dan ortiq loyihibar amalga oshirildi. Ular orasida eng asosiyлари quyidagilari:

- **gov.uz** — O'zbekiston Respublikasi Hukumat portalı, u tashkilotlar, shuningdek, yuridik shaxslar va jismoniyl shaxslar o'rjasidagi elektron-axborot munosabatlari infratuzilmasining tizim tashkil etuvchi portal sanaladi. Har qanday fuqaro yoki

korxona, tashkilot, muassasa vakili bu yerdan O'zbekiston davlat hokimiyatining barcha hujjatlari haqida to'liq ma'lumot olishi, shuningdek, bevosita gov.uz portali orqali u yoki bu hokimiyat organiga elektron shaklda rasmiy so'rov yuborishi mumkin. Bu portalda, shuningdek, Bazaviy interaktiv davlat xizmatlari to'liq reyestri chop etilgan.

- **E-kommunal.uz** portalı – kommunal xo'jalik sohasidagi umumiyy axborot infratuzilmasi bo'lib, aholi, nazorat organlari va uy-joy mulkdorlari shirkatlari, shuningdek, kommunal xizmatlar o'rtaida axborot almashinuvini soddalashtiradi. Ushbu portalda qulay shaklda O'zbekiston uy-joy va kommunal xo'jalikka oid barcha masalalar bo'yicha ma'lumotlar joylashdirilgan. Har bir xohlovchi portalda kommunal xo'jalik borasidagi u yoki bu muammo haqida axborot, fotosurat joylashtirishi mumkin, bu muammolar davlat hokimiyatining tegishli organlari tomonidan o'rganib chiqiladi.
- **stat.uz** va **soliq.uz** – statistika, soliq va boshqa moliyaviy hisobotlarni tadbirdorlik subyektlaridan elektron ko'rinishda yig'ish va qayta ishslash tizimi. Davlat soliq qo'mitasi saytida istalgan soliq to'lovchi, ham yuridik, ham jismoniy shaxs maslahat olishi, elektron ko'rinishda soliq hisoboti yoki daromadlar haqida deklaratsiya topshirishi kabi qator xizmatlardan foydalanishi mumkin. Davlat statistika qo'mitasi sayti orqali har bir tadbirdorlik subyekti statistik hisobotni elektron ko'rinishda topshirishi mumkin.
- **lex.uz** – 25 mingdan ziyod me'yoriy hujjatlarni erkin foydalanish uchun yig'ilgan O'zbekiston Milliy qonunchilik bazasi. Lex.uz milliy tizimining asosiy maqsadi aholining huquqiy madaniyatini yuridik va jismoniy shaxslarning me'yoriy-huquqiy hujjatlardan keng foydalanishini ta'minlash orqali yuksaltirish, aholini huquqiy axborot bilan ta'minlashni takomillashirishdan iborat.
- **uzbekenergo.uz** – Elektron energiya iste'molchilarining har biri uchun o'z shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanishini ta'minlovchi elektrenergiya iste'molchilar shaxsiy kabinetlari tizimi.
- **mfa.uz** – Chet el fuqarolarining O'zbekistonga viza rasmiylashtirishlari uchun onlayn-so'rovnomalar tizimi. Tizim O'zbekiston tashqi ishlarni vazirligi web-saytining bir qismi bo'lib, hozirda o'zbek, ingliz va rus tillarida ishlamoqda.
- **license.uz** – Faoliyatning litsenziyalanadigan turlari va ruhsat berish taomillari ro'yxati, litsenziya, ruhsatnomalar va boshqalarni olish uchun talab qilinadigan hujjatlar haqida axborot olish imkonini beruvchi umumiy litsenziyat portali. O'zbekistonda litsenziyalanadigan faoliyat turlari ro'yxati muntazam qisqarmoqda va ularni olish taomili soddalashmoqda. Ushbu loyiha barcha axborotni olish va zarur litsenziyalarni olishdagi qog'ozbozlik darajasini kamaytirish imkonini beradi.

Qo'shimcha qilib, bugungi kunda elektron hukumat tizimining samarali elementlari sifatida 20dan ortiq loyihalarni amalga oshirilganligini ta'kidlab o'tish lozim. Shu jumladan: Tashkilotlarni hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtaida elektron-axborot o'zaro munosabatlari infratuzilmasi tizimini tashkil etuvchi elementi sifatida O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali – **www.gov.uz** har qanday fuqaro yoki korxona, tashkilot, muassasa vakili O'zbekiston davlat hokimiyati barcha elementlari bo'yicha to'la axborot olishi hamda bevosita gov.uz portali orqali elektron ko'rinishda davlat hokimiyatining u yoki bu organiga rasmiy so'rovnomalar jo'natishi mumkin. Bundan tashqari, mazkur portalda

asosiy davlat interfaol xizmatlari to'la reyestri berilgan. Davlat interfaol xizmatlari yagona portal fuqarolar va davlat organlari o'rtaсидаги ко'пrik hisoblanib, u turli xususiyatdagi hayotiy muammolarni hal etish imkonini beradi. Turli masalalar bo'yicha tegishli davlat organlariga murojaatlar eng ommaviy xizmatlardan biri hisoblanadi. Ommaviy xizmatlardan biri turli masalalar bo'yicha tegishli davlat organlariga murojaat etish bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtida uy-joy-kommunal xizmatlari, ta'lif, sog'liqni saqlash bo'yicha ko'plab savollar bilan murojaat etadir. Bugungi kunda yagona portal orqali 20tadan ortiq yo'naliш bo'yicha 300dan ortiq interaktiv xizmat ko'rsatiladi. Ular orasida, jumladan, stationar telefon aloqasi xizmatlariga ularish va yuridik hamda jismoniy shaxslar uchun Internet, soliqlar bo'yicha qarzdorlik mavjud emasligi haqida ma'lumotnomalar olish, telekommunikatsiyalar va boshqa sohalar bo'yicha litsenziyalar olish kabi xizmatlar avtomatik rejimda taqdim etiladi.

«Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish Markazi tomonidan davlat buyurtmasi asosida bir nechta sohalarda axborot tizimlar komplekslari va ma'lumotlar bazalarini yaratish bo'yicha ishlarni olib borildi, loyihalarning amalga oshirilishi muvofiqlashtirib borilmoga. Loyihalarni amalga oshirish bo'yicha davlat boshqaruva organlari, tashkilotlari, muassasalar va korxonalar bilan markaz o'rtaсиda doimiy hamkorlik o'rnatildi. Loyihalarni belgilangan muddatlarda amalga oshirish va «Elektron hukumat» tizimida loyihalarni yaratish va joriy etilishini ta'minlash maqsadida reja grafik asosida ishlarni tashkil qilindi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti hozirda iqtisodiy erkinlashirish sharoitida jadal rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda ijtimoiy sektorning har bir sohasida yuqori ko'rsatkichlarga erishilmoqda. Shu bilan birga, zamonaliv texnik vositalardan mukammal foydalanishni biluvchi malakali mutaxassislariga ham talab oshib bormoqda. Korxonalarni texnik jihatdan qayta qurollantirish, kam chiqitil va chiqitsiz texnologiyalardan, ilg'or konstruksiyal materiallardan foydalanish dasturlarini amalga oshirish natijasidagina mehnat unumdarligini o'sishiga erishish, mahsulot sifatini yaxshilash, aholining xarid talabini qondirish, ilm-fan ishlab chiqarish tarmoqlarini, ayniqsa, elektronika, mashinasozlik, hisoblash texnifikasi, aloqa vositalari ishlab chiqarishni rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Davlat sektoriga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilinishi iqtisodiyotning rivojlanishini tezlatadi, ish samaradorligini oshiradi, elektron hukumatni shakllantirish O'zbekiston Respublikasida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi uchun zaruriy sharti bo'lib, u esa o'z navbatida, jamiyatni demokratik o'zgarishlariga olib keladi, aholini axborot resurslarni erkin olishiga, uzatishiga va tarqatishiga huquq beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi Qonuni. 2003-yil 11.12. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-yil, 4-son, 41-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining «Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonuni. 2004-yil 29.04. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-yil, 20-son, 232-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi Qonun. 2004-yil 29.04. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-yil, 20-son, 230-modda.
4. O'zbekiston Respublikasining «Elektron to'lovlar to'g'risida»gi Qonuni 2005-yil 16.12. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005-yil, 51-son, 373-modda.



ИНФОРМАЦИОННУЮ ПОДДЕРЖКУ
ЖУРНАЛУ infoCOM.UZ ОБЕСПЕЧИВАЕТ

«INTER-PRESS»
ИНФОРМАЦИОННОЕ АГЕНТСТВО

төл.119-0000
E-mail: book@interpress.uz
www.interpress.uz



Реклама

Услуги лицензированы